Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

SHARQ MUMTOZ POETIKASIDA HUSNI MATLAB VA HUSNI TAXALLUS: "AL-MO'JAM" VA "FUNUN UL-BALOG'A" MISOLIDA

Shohista Jamshid qizi Mulloqulova*
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
✉ bshfx17041309@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada "Al-Mu'jam" va "Funun ul-balog'a" asarlarida yoritilgan husni matlab hamda husni taxallus badiiy san'atlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu san'atlarning nazariy talqini, o'xshash va farqli jihatlari hamda mumtoz poetikadagi o'rni tahlil etiladi. Qiyosiy-tipologik va tavsifiy metodlar asosida olib borilgan tadqiqot natijasida har ikki asardagi qarashlarning mushtarakligi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar

"Al-Mo'jam", "Funun ul-balog'a", husni matlab, husni taxallus, poetika, qiyosiy tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.21743525

KIRISH

Kelib chiqish ildizi uzoq asrlarga borib taqaluvchi badiiy san'at vositalari nasr yo nazmning bezovchisi bo'lib qolmay, ayni damda, ijodkorning o'y-xayoli, his-hayajon va kechinmalarini tinglovchiga yetkazuvchi vosita, uning ma'naviy olamiga ta'sir etuvchi rishta hamdir. Shu sabab ham she'riy san'atlarga mumtoz adabiyotimizda azaldan alohida e'tibor qaratilgan hamda *ilmi badi'* asosida keng o'rganilib kelingan. Ma'lumki, bu ilm haqidagi ilk risolalar johiliya davri yoki islom xalifaligi davrida shakllangan degan qarashlar mavjud. "Avesto" tarkibidagi asotirlar, O'rxun-Enasoy obidalaridagi badiiyat namunalari hamda "Devonu lug'atit turk" tarkibidagi parchalarda ham ilmi badi'ning unsurlarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, islomiy manbalarni o'rganish jarayonida ham badiiy san'atlarning turli shakllariga guvoh bo'lamiz.

Malumki, Atoulloh Husayniyga qadar ilmi bade'ga doir asarlarda badiiy san'atlar alohida guruhlarga ajratilmagan. Husayniy esa ularni nutq go'zalliklari uch qismga ajralishi va bu jihatdan har bir go'zallik yo faqat lafz, yo faqat ma'no, yohud lafz-u ma'no yig'indisidan tashkil topishini nazarda tutib, lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlarga ajratgan edi.

Ushbu maqolada ochiqlab o'tadigan she'riy san'at turlaridan biri qorishiq san'atlar bo'lib, ular ham shakl va ma'no munosabatlariga bog'liq holda o'rganilganligi sabab, lafz-u ma'naviy san'atlar deb ham nomlanadi. Ushbu san'atning quyidagi asosiy turlari mavjud: mutobiqa, tadbeh, muqobila, muroot-un-nazr, tafvif, ta'zil, tansiq-us-sifot, irsod, tazmin, husni ibtido, baroati istehlol, husni taxallus, husni matlab, husni maqta' va boshqalar. [1, B.220]

Shams Qays Roziy va Ahmad Taroziy o'z risolalarida badiiy sana'atlarni lafziy, ma'naviy va mushtarak deb turlarga ajratmaydi. Ahmad Taroziy badiiy san'atlarni arab alifbosi tartibiga rioya etgan holda birin-ketin izohlaydi. Shams Qays Roziy esa risolasida badiiy san'atlar joylashuvi haqida hech qanday izoh bermagan. Quyida har ikki alloma risolalarida sharhlangan *husni matlab* va *husni taxallus* san'atlarini ko'rib o'tamiz.

Poetika ilmida *husni matlab* maqsadni nozik bayon etish san'ati hisoblanib, unda shoir o‘z muddaosi, istak va iltimosini nazokat ila ifodalaydi. Ilk shakllari qasidalarda shoir tomonidan marhamat so‘rash usuli sifati tushuntirilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ilmi bade'da uning qo‘llanish doirasi kengayib boradi. Va har qanday istak, iltimos yoki murojaatni ta'sirli hamda muloyimlik ila ifodalashning umumiy poetik tamoyili sifatida baholangan. Atoulloh Husayniy bu san'atning yana *adabi talab*, *baroati talab* va *husni suol* istilohlari bilan yuritilishini aytib o‘tadi. Shu o‘rinda aytish joizki, husni matlab san'atini faqatgina biror manfaat yo‘lida murojaat yoki iltimos qilish vositasi hamda qasidalarga xos usul sifatida talqin etish to‘g‘ri emas, albatta. Sababi bir tomondan ushbu san'at nazmiy asarning ifoda va uslubiy yaxlitligini ta'minlashga hissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan u shoirning iltimosini tartibli shaklda, yoqimli va muloyim tarzda badiiy mahorat bilan ifodalash vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ushbu san'at saroy shoirlari bilan bir qatorda oddiy xalq adabiy muhitida ham keng qo‘llanilgan poetik usullardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlar natijasida husni matlabning faqatgina badiiy san'at emas, balki ijtimoiy-kommunikativ vazifa ham bajaruvchi vosita ekanligi haqida xulosaga kelinadi.

"Al-Mo‘jam" asarida ushbu badiiy vosita alohida izohlanmay husni matla' tarkibida kiritilgan bo‘lib, Qays Roziy misol sifatida Abushakuriy Balxiy, Abulmaoliy Roziy hamda Anvariy ijodidan baytlar keltirish orqali sharhlab o‘tgan.

Adab magiru fasohat magiru she'r magir,

Na man g‘aribamu shohi jahon g‘aribnavoz.[2, B.329]

Mening odobim, fasohatim va she'rlarimga emas, balki holimga boq. Men bir bechoramanki, ey shoh, sen g‘ariblarga mehribon rahnamosan. Nozik uslub orqali shoir shohdan muruvvat kutishini tasvirlab bergan. Husni matlab bilan bir qatorda takrorning ham ishlatilishi mazmunni yanada ta'sirchan bo‘lishiga xizmat qilgan.

"Funun ul-balog‘a" da ushbu she'riy san'at " Bu aningtek bo‘lurkim, shoir mamduhdin xo‘b tariq birla narsa iltimos qilur" deya izohlanadi hamda quyidagi bayt misol tariqasida keltiriladi:

Girdobi g‘amda qoldi maishat safinasi,

Lutfung ne bo‘lg‘ay anga, oy bo‘lsa bodbon.[3, B.144]

Mazmuni: Turmushning kemasi g‘am girdobida qoldi. Sening marhamating unga yelkan bo‘lsa, ahvoli yaxshilanardi. Taroziyga nisbat berilgan ushbu bayt orqali shoir inson hayotini g‘am-anduh to‘la dengizga, unda yashashni esa kemaga qiyoslaydi. Qiyinchiliklardan qutulmoq uchun shohning karamiga umidvorligi nazokat ila qalamga olingan.

Poetika ilmida balog‘a usullaridan deya e'tirof etilgan *husni taxallus* qasidanavislikning muhim kompozitsion unsurlaridan biri sanalgan. Husni taxallus (go‘zal o‘tish, nafis o‘tish) – lirikada muqaddima bilan madh qismini bog‘lovchi nozik rishta hisoblanadi. Va bu, albatta, mantiqiy uyg‘unlik, betakror obrazlilik, nafis tasviriylik asosida yuzaga keladi.

Qays Roziy lutfi taxallus haqida alohida nazariy ta'rif bermagan bo‘lsa ham, asar davomida bir necha o‘rinda taxallusot, lutfi taxallus, taxallusoti mustahsan kabi atamalarni qo‘llaydi. Ushbu san'atni sharhlashda bir necha baytlar keltiradi. Shu bilan birgalikda, Roziy xushohang taxalluslarlar bilan bir qatorda muvaffaqiyatsiz bo‘lgan taxalluslarga ham baytlardan misol berib o‘tadi. "Персидско-таджикская классическая поэтика (X—XV вв.)" asarida aytilishicha, "Jam'-i muxtasar" asarining tadqiqotchisi A.E. Bertels *taxallus* atamasi ikki xil ma'noga ega ekanligini aytib o‘tadi. Dastlabki ma'nosi −kirishdan madh qismiga o‘tish, ikkinchisi esa – qalam ahlining adabiy taxallusi ma'nosida ishlatiladi.

Keyingi asrlarda husni taxallus faqat qasidalarga xos san'at sifatida emas, balki har qanday she'riy shaklning kirishdan asosiy qismga mazmun va badiiy tomondan mukammal tarzda o‘tuvchi badiiy vosita sifatida talqin qilina boshlandi. Shuningdek, qalam ahli tomonidan taxallus atamasi terminologik ma'noda, ya'ni ijodkorning adabiy taxallusi, laqabini she'rda ifodalash usuli sifatida qo‘llaniladigan bo‘ldi. Bu esa adabiy jarayonning tarixiy taraqqiyotida atamalarning semantik kengayish jarayonini namoyon etadi. "Al-mo‘jam" asarida Qays Roziy Muxtoriy ijodidan quyidagini she'rni keltiradi:

Diy boz dar tafakkuri onam, ki bodro,

Bo tobi sunbuli sumanoroi tu chi kor?

Gar niz girdi zulfi tu gardad, biso‘zamash

Az vasfi otashi shamsheri shaxriyor.[2, B.328]

Mazmuni: shamolning sumbul sochlaring bilan nima ishi borligi haqida o‘ylanib qoldim. Agar u yana zulfing atrofida aylanganini ko‘rsam, uni podshoh qilichining olovli tig‘ini tasvirlash ila kuydiraman. Ko’rib turganimizdek shoir, dastlab, sevgili yor haqida gapirib, so‘ng podshoh madhiga o‘tadi.

“Funun ul-balog‘a” risolasida Rashididdin Vatvotning quyidagi baytlari misol sifatida keltirilgan:

Chu shoxi gul ba dah angusht xost k-az dimog‘,

Zi bargi lola ba kaf kard guliston otash.

Ajab chu lola sanoyi adadi shoh naguft

Duoki kard, ki bodosh dar dahon otash.[3, B.144]

Mazmuni: ochilgan gular va qizil lolalar tasviri bilan boshlangan ushbu she’rda shoir ma’noda burilish yasaydi: shohni madh etish o‘rniga kinoyaviy tarzda “duo” yo‘llaydi. Shuning uchun ham she’rda faqat tabiat tasviri emas, balki satirik mazmun ham alohida o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Shamsiddin Qays Roziy va Shayx Ahmat Taroziy talqinlaridagi badiiy san’atlar o‘rtasida yuqorida zikr etilgani kabi yana ko‘plab tutash nuqtalar, biroz farqli jihatlar mavud bo‘lib, ba’zi o‘rinlarda bahs-munozaraga sabab bo‘ladigan tomonlar ham ko‘zga tashlanadi. Biz bunday tomonlarni imkon qadar ko‘rib chiqishga, “Al-mo‘jam” va “Funun ul-balog‘a” risolalaridagi badiiy san’atlarni qiyosiy metodda tahlil etishga va ularning o‘xshash va farqli tomonlarini baholi qudrat e’tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан А.Рустамов таржимаси. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1981. – Б. 223.
2. Шамси Қайси Розӣ. Ал-мўъҷам/таҳиягар ва муаллифи луғот ва тавзеҳот У.Тоиров. – Душанбе: Адиб, 1991. – С.463.
3. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – Б.210.